



UDK: 413.13=20(045)

Mashhura BERDIYEVA,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqodchisi
E-mail: mashhuraberdiyeva0999@gmail.com

Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD Sh.Nashirova taqrizi asosida

ONOMASTIK BIRLIKLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi onomastik birliklar tizimi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, gidronimlar, zoonimlar va boshqa atoqli otlar qatlamining shakllanish manbalari, tarixiy-etimologik xususiyatlari, morfologik tuzilishi hamda lingvomadaniy funksiyalari o'rganiladi. Ingliz va o'zbek onomastik tizimlari o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlanib, nomlash jarayonining milliy-madaniy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, atoqli otlarning ingliz-o'zbek tarjimasidagi muammolar va yechimlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyat va tarjimashunoslik sohalari uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: onomastika, toponim, antroponim, lingvomadaniyat, etimologiya, ingliz tili, o'zbek tili.

COMPARATIVE ANALYSIS OF ONOMASTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This research article provides a comparative analysis of onomastic units in English and Uzbek languages. The study examines the formation sources, etymological layers, structural features, and linguocultural functions of anthroponyms, toponyms, ethnonyms, hydronyms, and other proper names. Similarities and differences between the English and Uzbek onomastic systems are identified, and the cultural foundations of naming practices are analyzed. The article also discusses major issues in translating proper names between English and Uzbek and offers methodological solutions. The findings contribute to comparative linguistics, cultural linguistics, and translation studies.

Key words: onomastics, toponyms, anthroponyms, naming, linguoculture, etymology, translation.

СПРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной научной статье проводится сравнительный анализ онимов в английском и узбекском языках. Исследуются источники формирования, этимологические слои, структурные особенности и лингвокультурные функции антропонимов, топонимов, этнонимов, гидронимов и других имен собственных. Определяются сходства и различия двух ономастических систем, раскрываются культурные основы номинации. Кроме того, рассматриваются проблемы передачи имен собственных при переводе между английским и узбекским языками. Результаты исследования имеют практическое значение для сравнительного языкознания и переводоведения.

Ключевые слова: ономастика, топонимы, антропонимы, лингвокультура, этимология

Kirish. Onomastika tilshunoslikning atoqli otlarni o'rganadigan sohasi bo'lib, xalqning madaniy xotirasi, tarixiy qatlami va dunyoqarashini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillari struktur, tipologik hamda etimologik jihatdan farqlanishiga qaramay, har ikkisi ham ko'p asrlik nomlash an'alariga ega. Dunyo bo'yicha kommunikatsiya jarayonining globallasuvi, tarjima texnologiyalarining kengayishi, madaniyatlararo muloqotning chuqurlashuvi onomastik birliklarning semantik va madaniy tahlilini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Atoqli otlarning to'g'ri talqini tarjima jarayonining aniqligiga, madaniy konnotatsiyalarning yetkazilishiga bevosita ta'sir qiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan asosiy onomastik birliklar tizimini qiyoslash, ularning lingvomadaniy, semantik va etimologik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Onomastika bo'yicha ilmiy tadqiqotlar har ikki tilshunoslik an'alarida – ingliz va o'zbek tilshunosligida – XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida yo'nalish sifatida shakllana boshlagan. Atoqli otlarning semantik, etimologik hamda lingvomadaniy mohiyatini o'rganish, nomlash jarayonining milliy-madaniy asoslarini tadqiq etish, shuningdek qiyosiy onomastik yondashuvlarni rivojlantirish bu sohani mustaqil

ilmiy yo'nalishga aylantirgan. Quyida mazkur sohaga oid eng muhim manbalar va ular asosida shakllangan nazariy yondashuvlar kengaytirilgan shaklda tahlil qilinadi.

O'nlab yillar davomida onomastik birliklar lingvistika tarkibida alohida soha sifatida shakllanishida G. Dunkel, E. Hamp, A. Superanskaya kabi olimlarning asarlari muhim rol o'ynagan [1]. Superanskayaning onomastikaga oid fundamental ishlari nomlash jarayonining semantik asoslari, atoqli otlarning grammatik xususiyatlari va tipologik tasniflarini shakllantirgan.

Ingliz tilshunosligida esa atoqli otlarni o'rganish A. Room, E. Eichler, R. Coates kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan bo'lib, ular ingliz toponimikasining qadimgi german, kelt va lotin ildizlari bilan bog'liqligini chuqur asoslab bergan[2].

Bu nazariy ishlar qiyosiy onomastikaga tayanadigan barcha keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek onomastikasini o'rganish XX asrning o'rtalaridan boshlab avj olgan bo'lib, V.V. Bartoldning Markaziy Osiyo toponimiyasi bo'yicha tarixiy-etnografik ma'lumotlari hamda Botirxon Valixo'jayevning o'zbek antroponimikasiga oid tadqiqotlari bu ilmiy yo'nalishga zamin

yaratdi. Mustaqillikdan keyingi davrda Q. Qayumovning "O'zbek onomastikasi asoslari", M. Mirtojievning etimologik lug'atlari, S. Sodiqovanning zoonimlar bo'yicha izlanishlari va Y. To'xtiyevning tarixiy toponimlar haqidagi ishlari mazkur sohani yangi bosqichga olib chiqqan.

Ushbu ilmiy manbalar o'zbek tilidagi atoqli otlarning: tarixiy-etnik ildizlari, etimologik qatlamlari, semantik modellari, milliy-madaniy motivatsiyasi kabi xususiyatlarini keng yoritadi. Ingliz tilidagi atoqli otlarning tarixiy shakllanishi bir necha etnik qatlamning ketma-ket o'zaro ta'siri orqali yuzaga kelgan bo'lib, bu jarayon to'liq tarzda A. Roomning "Dictionary of Place Names", D. Crystalning ingliz tili tarixi va strukturiga oid asarlarida yoritiladi. Ingliz toponimlarining keltlar, rimliklar va saksonlar tomonidan qoldirilgan morfologik elementlar asosida tahlili - qiyosiy tadqiqotlar uchun juda muhim lingvistik materialdir. Masalan:

- chester / -caster (lot. castra — "qal'a"),
- ham (anglo-sakson ham — "qishloq"),
- ton (anglo-sakson tun — "shahar").

Bu elementlar ingliz tilidagi toponimika tizimini morfologik jihatdan murakkab va ko'p qatlamli qiladi. O'zbek tilida esa toponimlar ko'pincha semantik jihatdan shaffof bo'lib, tabiiy-geografik tasvir asosida shakllanadi.

Qiyosiy yo'nalishdagi tadqiqotlar tilshunoslikda nisbatan keyin shakllangan bo'lsa-da, ular ikki tilning madaniy, tarixiy va struktural farqlarini ochib berishda muhim o'rin egallaydi. Xususan, E. U. Bartning qiyosiy toponimika bo'yicha ishlari, R. Coatesning ingliz tilidagi nomlash motivatsiyasi haqidagi tahlillari hamda o'zbek tiliga doir M. Mirtojiev ishlarida keltirilgan qiyosiy etimologik mulohazalar qiyosiy yondashuvni mustahkamlagan.

Ingliz va o'zbek onomastik tizimlari qiyoslanganda quyidagi farqlar ilmiy adabiyotda keng qayd etilgan:

1. Etimologik qatlamlarning turlicha tuzilishi
 - ingliz tilida rim-german-kelt qatlamlari aralashmasi;
 - o'zbek tilida turkiy, arab, fors qatlamlari hukmron.
2. Nomlash motivatsiyasi
 - ingliz tilida shaxs nomi + joy belgisi modeli kuchli;
 - o'zbek tilida rang, tabiat, etnos, geografik tasvir asosiy motiv sifatida ustun.

3. Tarjimada yuzaga keladigan muammolar
 - tovush nomi kelmaslik: th, w, x, q, g' muammosi.

Ushbu farqlarni ilmiy asosda tahlil qilgan tadqiqotchilarning fikrlari qiyosiy onomastika metodologiyasining shakllanishiga xizmat qilgan.

So'nggi yillarda onomastikani lingvomadaniy va kognitiv yondashuv asosida o'rganish keng tarqaldi. Bu borada Yu. Apresyan, A. Vejbitskaya, Sh. Safarov kabi olimlarning ishlari e'tiborga loyiq. Chunki atoqli otlar – bu nafaqat til birligi, balki xalqning kollektiv xotirasi, kultur kodlari, mental xaritasining ifodasidir.

Ingliz va o'zbek onomastik tizimlarining madaniy kodlari ham sezilarli farqlanadi:

Ingliz madaniyatida feodal tuzilma, mulkchilik, diniy an'ana kuchli iz qoldirgan.

O'zbek madaniyatida etnoslararo aloqalar, geografik sharoit va turkiy madaniy qatlam nomlash jarayoniga chuqur ta'sir qilgan. Bu yondashuvlar atoqli otlarni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik kontekstida ham talqin qilish imkonini beradi. Tarjima jarayonida atoqli otlarning ekvivalenti muhim masala hisoblanadi. V. Komissarovning tarjima nazariyasi bo'yicha ishlari, P. Newmarkning "A Textbook of Translation" asari va A. Koptilovning atoqli otlarni tarjima qilish bo'yicha qarashlari bu borada asosiy manbalardan biridir.

Ular atoqli otlarni tarjima qilishda quyidagi tamoyillarni taklif qiladilar:

transkripsiya, transliteratsiya, kalka, izohli tarjima.

Tahlil va natijalar. Onomastik birliklarning ingliz va o'zbek tillaridagi tadqiqi ularning kelib chiqishi, semantik qatlamlari, milliy-madaniy komponenti va lingvokulturologik funksiyalarini qiyosiy ko'rib chiqishni taqozo etadi. Avvalo, ikkala tilning tarixiy taraqqiyoti, etnik shakllanish jarayoni hamda tashqi ta'sirlar onomastik tizimning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Ingliz onomastik tizimi german, kelt, lotin, fransuz va skandinav manbalarining qatlamlashuvi asosida shakllangan bo'lsa, o'zbek onomastik tizimi turkiy, fors-tojik, arab va mahalliy etnik-madaniy qatlamlardan tarkib topgan [4].

Ingliz tilidagi shaxs ismlarining aksariyati Bibliya, German, Norman yoki lotin manbalariga borib taqaladi: William, Henry, Richard, Elizabeth, Catherine, John kabi nomlar tarixiy davrlarda qatlamlashgan. Bunda ismlar ko'pincha xristian madaniyatining qadriyatlarini bilan bog'liq bo'lgan [5]. O'zbek antroponimiyasida esa turkiy (Otabek, Ulug'bek, Temur), arab-islomiy (Abdulloh, Muhammad, Zaynab) va fors-tojik (Zuhra, Behzod, Farhod) qatlamlar ko'p uchraydi. O'zbek ismlarida ma'noviy sharaf, ezigulik, kuch, saxovat, ilmga intilish kabi konseptlar ustuvordir — bu esa Sharq onomastik tafakkurining o'ziga xos xususiyatidir. Ingliz toponimiyasida o'rta asrlargacha bo'lgan tarixiy jarayonlar izlari juda kuchli:

- ham (qishloq),
- ton (posyolka),
- ford (ko'prik o'tish joyi),
- bury (qal'a, istehkom),
- castle (qadimiy istehkom),

kabi affiksalar hududning tarixiy tabiatini aks ettiradi.

O'zbek toponimiyasida esa:

- kent (shahar),
- tepa (baland joy),
- obod (farovon joy),
- qishloq,
- ariq,

kabi komponentlar hudud relyefi va xo'jalik faoliyatini belgilab bergan.

Toponimlarning shakllanishida geografik voqelik ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda, biroq o'zbek tilidagi nomlarda ko'proq iqlim, sug'orma dehqonchilik, etnik tarix izlari seziladi. Ingliz va o'zbek etnonimlarida tarixiy-etnik jarayonlar aks etadi. Masalan, ingliz tilida Angle, Saxon, Norman kabi etnonimlar etnogenezga oid kategoriyalarni bildiradi. O'zbek etnonimlarida esa qarluq, qipchoq, qo'ng'iro't kabi qadimiy turkiy qabila nomlari hanuzgacha saqlanib qolgan. Zoonimlar bo'yicha ingliz tilida Bull, Fox, Hawk, Wolf kabi nomlar ramziy, heraldik ma'noda qo'llangan bo'lsa, o'zbek madaniyatida hayvon nomlari ko'proq majoziy-taqoslovchi funksiyada qo'llanadi (Arslon, Qoplon, Tulki). Ingliz onomastikasida shaxsning ijtimoiy mavqei, kelib chiqishi, hududiy mansubligi aks etgan. O'zbek onomastikasida esa urfdan kelgan e'tiqodlar, ezigulikka ishonch, sharaf, or-nomus, ota-ona tilagi yetakchi o'rinda turadi.

Masalan, Temurbek, Sodiq, Sabr, Umid kabi ismlar o'zbek madaniyatining konseptual maydonini aks ettiradi. Ingliz madaniyatida esa Grace, Hope, Faith kabi nomlar xristian qadriyatlarini bildiradi.

Har ikkala tilda ham onomastik birliklar tarixiy jarayonlar, diniy omillar, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi tasdiqlandi. Antroponimlar va toponimlar mazmuniy qatlamining ko'p bosqichlilik uchraydi — bu jarayonlar etnik aralashuv natijasidir. Ingliz va o'zbek tillarida ham onomastik motivatsiya mavjud: shaxsning fazilati, joyning geografik xususiyatlari, hayvon nomlari bilan bog'liq

ramziylik. Ingliz tilida antroponimlar kelt, frank, german, lotin manbalarining qatlamidan shakllangan bo'lsa, o'zbek tilida asosiy qatlam turkiy-arab-fors manbalariga tayangan. Ingliz toponimlarida siyosiy va harbiy tarix ustuvor bo'lsa (castle, fort, bury), o'zbek toponimlarida tabiiy-geografik omillar va dehqonchilik madaniyati ustuvor (tepa, qishloq, obod). O'zbek antroponimlari ko'proq oliy ma'naviy-axloqiy tamoyillarni aks ettiradi, ingliz ismlarida esa shaxsiy nomlarning tarixiy-bibliik ildizi kuchli. Zoonimlar ingliz tilida ko'proq oilaviy gerblar va heraldika bilan bog'langan, o'zbek onomastikasida esa ular qahramonlik, kuch, chaqqonlik singari sifatlarni bildiradi. Har ikkala til onomastik tizimida ham: milliy identitet, tarixiy qatlam, ma'naviy-diniy asos, tilning semantik imkoniyatlari turlicha darajada namoyon bo'ladi. Ingliz tizimi ko'proq tarixiy-etnik aralashuv natijasi bo'lsa, o'zbek tizimi barqaror turkiy asos va Sharq madaniy merosiga tayanadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi onomastik birliklarning shakllanishi, semantik tarkibi, tarixiy manbalari va lingvokulturologik funksiyalarini qiyosiy tahlil qilish orqali ikki tilning onomastik tizimi ham umumiy, ham o'ziga xos differensial xususiyatlarga egaligini aniqladi. Onomastika har ikki xalqning tarixiy evolyutsiyasi, etnik identiteti, diniy qarashlari va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini yoritib beruvchi muhim til birliklari majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Avvalo, ingliz onomastik tizimi german, kelt, lotin, fransuz va skandinav qatlamlarining o'zaro qo'shilishi natijasida murakkab ko'p qatlamli struktura hosil qilgan bo'lsa, o'zbek onomastik tizimi turkiy asosga tayanib, arab-islomiy va fors-tojik madaniy qatamlari bilan boyigan. Bu ikki xil asosiy manba onomastik birliklarning semantik maydonini ham

farqlab turadi: ingliz ismlarida xristian dini konseptlari; o'zbek ismlarida esa ezgulik, nasl, or-nomus, diniy e'tiqod va ota-ona duosi bilan bog'liq konseptlar ustuvor bo'lib keladi.

Toponimik tizim ham ikki xalq tarixidagi turli jarayonlarni aks ettiradi. Ingliz toponimiyasida geografik obyekt nomlari ko'proq siyosiy-harbiy tarix, kolonial jarayonlar va feodal boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek toponimiyasida tabiiy-geografik omillar, dehqonchilik madaniyati, qadimiy turkiy etnik guruhlar nomlari, mahalliy dialektlar va tarixiy-religioz konnotatsiyalar ustuvor. Bu farq ikki tilning hududiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o'ziga xosliklardan kelib chiqadi.

Antroponimlar, toponimlar, etnonimlar va zoonimlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek onomastik tizimlarida motivatsiya prinsipi mavjud, biroq u turlicha semantik manbalarga asoslangan. Ingliz antroponimlarida tarixiy shaxslar, oilaviy gerblar, diniy tushunchalar muhim bo'lsa, o'zbek antroponimlarida axloqiy sifatlarni, diniy ramziy yuksaklik, ijtimoiy mavqe va ota-ona orzulari aks etadi. Zoonimlar ingliz madaniyatida heraldik va ramziy ma'nolarga ega bo'lsa, o'zbek madaniyatida ular asosan qahramonlik, jasorat yoki ayyorlik kabi sifatlarga ishora qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, onomastik birliklar shunchaki nomlash vositasi emas, balki har bir xalqning milliy identiteti, tarixiy xotirasi, madaniy kognitsiyasi va lingvistik tafakkurining muhim tarkibiy qismidir. Ingliz va o'zbek tillaridagi onomastik birliklarning qiyosiy tahlili lingvokulturologiya, etnolingvistika, semasiologiya, tarixiy tilshunoslik va sotsiologik tadqiqotlar uchun boy ilmiy material bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Dunkel G. Foundations of Onomastics. Berlin, 1998. (89-92)
2. Superanskaya A.V. Obshchaya Onomastika. Moskva: Nauka, 1973.(76-77)
3. Room A. Dictionary of Place Names. London: Routledge, 1996.(90-91)
4. Bartold V.V. Sochineniya. T. 5. Moskva: AN SSSR, 1964.(12-14)
5. Qayumov Q. O'zbek onomastikasi asoslari. Toshkent: Fan, 2018.(10-13)
6. Mirtojdiyev M. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent, 2015.(23-35)
7. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge UP, 2003.(19-20)
8. Barth E. Comparative Toponymy Studies. Oxford, 1987.
9. Coates R. On the Structure of English Toponyms. London, 2000.(24-25)
10. Karimov S. "Atoqli otlarni tarjima qilish muammolari", Til va tarjima, 2020.(102-103)
11. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Keywords. Oxford UP, 1997.